

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD. 03/27.02.2020.Fil.91.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

MAMATQULOV AZIZBEK RUSTAMOVICH

AKADEMIK AZIM HOJIYEVNING ILMIY MEROSI

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Guliston – 2024

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in
philological sciences**

Mamatqulov Azizbek Rustamovich

Akademik Azim Hojiyevning ilmiy merosi.....3

Маматкулов Азизбек Рустамович

Научное наследие академика Азима Хаджиева..... 23

Mamatkulov Azizbek Rustamovich

Academician Azim Hajiyev's scientific legacy45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 50

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD. 03/27.02.2020.Fil.91.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

MAMATQULOV AZIZBEK RUSTAMOVICH

AKADEMIK AZIM HOJIYEVNING ILMIY MEROSI

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Guliston – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.I.PhD/Fil 3055 raqam bilan ro'yxatga olingan

Dissertatsiya Guliston davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Guliston davlat universiteti veb-sahifasining (www.gdu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali www.ziyounet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Sharipov Fazliddin Galiyevich filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Mengliyev Baxtiyor Rajabovich filologiya fanlari doktori, professor Mahmudov Raufjon Bahodirovich filologiya fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Guliston davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2020.Fil.91.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "27" 12 soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 120100, Guliston sh., 4-mavze. Tel.: (99 867) 225-40-42; faks: (99 867) 225-02-75; E-mail: glsu_info@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Guliston davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (27 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 120100, Guliston sh., 4-mavze. Tel.: (67) 225-40-42).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "16" 12 kuni tarqatildi.

(2024-yil "16" 12 dagi 27 raqamli reestr bayonnomasi).



M.R.Mamatqulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

A.A.Axrorov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

A.E.Mamatov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda tilshunoslikka katta hissa qo'shgan olimlarning ilmiy merosini va ularning ilmga qo'shgan bebaho hissasini o'rganish, buni shu soha bilan shug'ullanadigan izlanuvchilarga yetkazish, shuningdek, tilshunoslikning ma'lum sohalarining tadrijiy taraqqiyotida ularning fikrlari muhim omil bo'lib xizmat qilganligini e'tirof etish juda muhimdir. Zero, tilshunoslikning bugungi kundagi taraqqiyoti va rivojlanish tendensiyasi jadal o'sib borayotganligi olimlarning bu boradagi izlanishlarining mahsuli ekanligi barchaga ayon. Shuning uchun ham olimlarning ilmiy faoliyatiga bag'ishlangan va ularning turfa qarashlarini bayon qiluvchi izlanishlar fan sohasining rivoji uchun xizmat qiluvchi hamda tilshunoslikda muhim, o'rganilishi dolzarb bo'lgan masalalardan bo'lib boraveradi.

Dunyo tilshunosligida keyingi davrlarda milliy tillar, jumladan, umumxalq tili va adabiy til munosabatining turli aspektda o'rganilishiga, milliy til tarixi fonetikasi, leksikasi, grammatikasi rivojiga munosib hissa bo'lib qo'shilgan muayyan tilshunos olimlarining ilmiy faoliyati va merosini o'rganishga jiddiy e'tibor qaratilib kelinmoqda. Tilshunoslikning har tomonlama taraqqiy etishi shu soha vakillarining olib borayotgan ilmiy qarashlari zamirida shakllanadi. Shuning uchun ham fanda mavjud qarashlarni qiyoslash, ularning soha rivojidadagi o'rnini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, o'zbek tilshunosligi yuzasidan til tarixi, lisoniy imkoniyatlarning nutqiy voqelanishi, lug'at boyligi va uning tarixiy o'zgarishlari, sohaning taraqqiyot omillari, ularga ijtimoiy-madaniy jihatlarning ta'siri masalalarini haqqoniy baholash imkoniyati yuzaga keldi. Zero, davlatimiz rahbari, muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ham alohida e'tibor qaratilgan: "Yoshlar o'rtasida mamlakatimiz boy tarixini, uning betakror madaniyatini va milliy qadriyatlarini keng targ'ib qilish, jahon ilm-fani va adabiyoti yutuqlarini yetkazish uchun kerakli muhit va shart-sharoit yaratish zarur"ligi¹ yurtimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Shunday ekan, o'zbek milliy qadriyati, madaniyatini o'zida namoyon etgan tilning rivojiga beqiyos hissa qo'shgan olimlarning yaratgan ilmiy asarlari va qarashlarini har tomonlama o'rganish adabiy tilning tadrijiy taraqqiyotini ilmiy asosda tushunish hamda yoritishda ishonchli manba bo'lib kelmoqda. Shunday ishlar qatorida akademik Azim Hojiyevning o'zbek tilshunosligi rivojiga qo'shgan hissasini tadqiq etish ham milliy tilimizning mohiyatini anglashda muhim manba bo'lib xizmat qilishi alohida ahamiyatga molikdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida", 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida",

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий яқунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурининг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи, 2017 йил, 16 январь.

2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari; 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarorlari hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiyaning ilmiy natijalari ma‘lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ilmiy tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ilm zahmatkashlarining merosini o‘rganish barcha davrlarda ham muhim masalalardan bo‘lib kelgan. Negaki, fanning taraqqiyoti shu soha vakillarining olib borgan amaliy ishlari natijasidir. Pirovardida bunday olimlarning faoliyatini o‘rganish fanda doimo birlamchi omillardan biri bo‘lib kelgan. Xususan, jahonda tilshunoslik ilmida o‘zining yetakchi g‘oya va fikrlari bilan munosib hissa qo‘shgan hamda tarixda, tilshunoslikda o‘chmas iz qoldirgan olimlar talaygina. Shunday ekan, bunday fan jonkuyarlarining ilmiy merosini o‘rganish dolzarb bo‘lib qolmoqda va izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, tilshunos olimlarning ilmiy merosini o‘rganish va tadqiq etish masalasi jahon tilshunosligida XX asrning o‘rtalaridan boshlangan. Ulardan A.A.Leontev, L.R.Zinder, V.V.Koletsov, Y.V.Franchuk, V.I.Postavalova, V.I.Makarov, V.V.Odinov kabi tadqiqotchilar mashhur tilshunos olimlarning ilmiy faoliyatiga bag‘ishlangan va ularning qarashlarini bayon qiluvchi ilmiy asarlar yaratgan bo‘lib, unda olimlarning nafaqat soha rivojiga qo‘shgan hissasi, balki hayot yo‘li, pedagogik faoliyati ham yoritgan². Shuningdek, S.Smirnov,³ G.A.Bogatova⁴, L.R.Zinder, Y.S.Maslov⁵ kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida tilshunos olimlarimizning ilmiy faoliyati hamda merosi obyekt sifatida olinganligini ko‘ramiz.

² Франчук Ю.В. А.А.Потебня. – Москва: Просвещение, 1986; Поставалова В.И. Язык как деятельность. Опыт интерпретации концепции В.Гумбольдта.– Москва: Наука,1982; Макаров В.И. А.А.Шахматов. – Москва: Просвещение, 1981; Одинцов В.В. В.В.Виноградов. – Москва: Просвещение, 1983; Леонтьев А.А. Евгений Дмитриевич Поливанов и его вклад в общее языкознание. – Москва: Наука, 1983; Колесов В.В. Л.В.Щерба. – Москва: Просвещение, 1987; Будагов Р. А. Человек и его язык. – Москва: Наука,1976.

³ Смирнов С.В. Федор Иванович Буслаев. – Москва: МГУ, 1978.

⁴ Богатова Г.А. И.И.Срезневский. – Москва: Просвещение, 1981.

⁵ Зиндер Л. Р., Маслов Ю.С. Л.В.Щерба – лингвист-теоретик и педагог / АН СССР, Науч. совет по теории сов. языкознания. Институт языкознания. – Ленинград: Наука, 1982; Щерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность. – Ленинград: Наука, 1974.

So‘nggi yillarda o‘zbek tilshunosligi rivojiga munosib hissa qo‘shgan A.G‘ulomov, S.Usmonov, F.Abdullayev, X.Doniyorov, E.Begmatov, G‘.Abdurahmonov, Sh.Rahmatullayev, R.Qo‘ng‘urov, I.Qo‘chqortoyev, H.Ne‘matov, M.Mirtojiyev, A.Nurmonov, Y.Tojiyev kabi olimlarning ilmiy merosi bo‘yicha qator tadqiqotlar borki, o‘zining yechimini kutib turibdi, qilingan amaliy ishlarni ham yanada batafsillashtirishga zarurat bor. Shunday tilshunoslar qatorida akademik A.Hojiyevning ham o‘rni alohidadir. Negaki o‘zbek tilshunosligida akademik olim tomonidan yaratilgan ilmiy meros, xususan, morfemika, morfologiya, so‘z yasalishi, leksikografiya, terminologiya hamda imlo masalasida tadqiq etgan ishlari hozirgi o‘zbek adabiy tili uchun juda muhimdir. Shu boisdan olimning mazkur, o‘ziga xos qarashlarini o‘rganish va asoslash dolzarblik kasb etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Guliston davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “O‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi akademik Azim Hojiyev ilmiy merosi haqida batafsil ilmiy mulohaza yuritish, shuningdek, olimning morfemika, so‘z yasalishi, morfologiya, terminologiya, leksikografiyaga oid ilmiy ishlarini tasniflash va tavsiflashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Azim Hojiyevning o‘zbek tilshunosligidagi mavjud terminlardan “so‘z”, “so‘zshakl” borasidagi qarashlarini tahlilga tortish va bu boradagi boshqa olimlarning fikrlariga qiyosiy baho berish, o‘zbek tilshunosligi sathlaridan morfemikaga oid ilmiy nazariyalarini o‘rganish;

olimning so‘z yasalishi, xususan, so‘z yasalishi tipi, so‘z yasalishi ma‘nosi, so‘z yasalishi usullari, yasama so‘z tarkibi, so‘z yasalishi asosi kabi tushunchalarga oid qarashlarini tadqiq etish va ushbu masala yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar bilan qiyoslash;

tilshunosning imlo masalasidagi ilmiy qarashlarini davriylik nuqtayi nazaridan o‘rganish, bu boradagi tahliliy ma‘lumotlarni istiqlol hamda istiqloldan oldingi merosi tarzida tadqiq qilish hamda olimning imlo borasidagi qarashlarining o‘zbek tilshunosligidagi ahamiyatini ilmiy asoslash;

Azim Hojiyevning leksikografik merosini tahlil qilish va lug‘at tuzish borasidagi ilmiy qarashlarini amaliyotga tadbiq etilganligini aniqlash.

Tadqiqot obyekti sifatida Azim Hojiyevning so‘z yasalishi, morfemika, morfologiya, leksikografiya, terminologiya, imlo masalalariga doir hamda tilshunoslik sathidagi ilmiy farazlariga asos bo‘luvchi ilmiy asarlari tanlab olindi.

Tadqiqotning predmetini Azim Hojiyevning o‘zbek tilshunosligida sistem-struktur bosqichdagi va ungacha bo‘lgan davrlarda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari, ularning leksikologiya, leksikografiya, morfemika, so‘z yasalishi hamda morfologiya taraqqiyotiga qo‘shgan hissalarini tadqiq qilish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada qiyosiy-tarixiy, tarixiy-genetik, tavsiflash, tasniflash, sinxron, leksikografik, funksional-semantik, statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘zbek tilida morfema borasidagi ilmiy qarashlar Azim Hojiyevning ilmiy fikrlari bilan qiyoslangan holda olimning morfemaning mohiyati masalasidagi fikrlari ilmiy asosga ega ekanligi, “yetakchi” va “ko‘makchi” morfema terminlarining ishlatilishi tilning mohiyatiga to‘g‘ri kelishi yoki kelmasligi isbotlangan;

olimning tilshunoslik terminlarining to‘g‘ri qo‘llanilishi borasidagi til qonuniyatlariga mos kelishi, mohiyatini aks ettira olishi yoki noo‘rin qo‘llanishiga doir ilmiy mulohazalari asosida o‘zbek tilshunosligida murakkab chalkashliklarning oldi olinganligi va termin tanlash mezonlarining asosini ishlab chiqqanligi dalillangan;

Azim Hojiyevning imlo masalasidagi ilmiy qarashlarini davriylik nuqtayi nazaridan o‘rganish, bu boradagi tahliliy ma‘lumotlarni istiqlool hamda istiqlooldan oldingi merosini tadqiqi asosida olimning imlo borasidagi qarashlarining o‘zbek tilshunosligidagi ahamiyati ochib berilgan;

Azim Hojiyevning ilmiy asrlaridagi o‘zbek tili so‘z yasashi masalalarida so‘z yasash, so‘z yasash usuli, yasama so‘zning tarkibi, so‘z yasashi asosi, so‘z yasovchi, so‘z yasaliş ma‘nosi, so‘z yasaliş tipi, mahsulli va mahsulsizlik, so‘z yasaliş imkoniyati kabi masalalar chuqur tahlil etilgan holda kompozitsion so‘z yasash usulining to‘la usul sifatida tizimlashmaganligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Azim Hojiyevning leksikografik merosi hamda lug‘at tuzilishi va foydalanishi haqidagi ilmiy qarashlari o‘zbek tilining izohli lug‘atini tuzishda asos qilib olinayotganligi misollar asosida isbotlangan;

Azim Hojiyevning termin tanlash haqidagi ilmiy xulosalari bugungi tadqiqot ishlarida asosiy mezon sifatida qabul qilinayotganligi tilshunoslik terminlariga oid fikrlari asosida ochib berilgan;

olimning imlo, izohli lug‘at, sinonimlar lug‘ati, terminologik lug‘atlari ilmiy tadqiqotchilar uchun ilmiy manba bo‘lib xizmat qilishi va ularning o‘zbek tilshunosligiga juda katta hissa qo‘shganligi imlo masalasidagi asosli ilmiy fikrlari istiqlool yillarida va undan keyingi yillarda ahamiyat kasb etgani asoslangan;

tilshunos olimning morfemika va morfologiyaga doir ilmiy qarashlari asosida o‘zbek tilshunosligida so‘z hamda forma yasalişidagi yangicha qarash va uning o‘zbek tilidagi mohiyati masalalari dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Lingvistik tahlil metodologiyasi negizida shakllantirilgani, aniq ilmiy manbalarga tayanilgani, ishonchli va samarali tavsiflash, tasniflash, qiyosiy-tarixiy usullaridan foydalanilgani, nazariy fikr hamda xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati umumlashtirilgan ilmiy-nazariy xulosa va natijalar o‘zbek tili derivatsiyasi, morfologiyasi bo‘yicha lingvistik tadqiqot olib borish, yasama

birliklarning leksik-semantik, uzual va okkazional ma'nolarini belgilash, o'zbek tili grammatikasidagi tadrijiy o'zgarishlarni baholash imkonini berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan xulosalardan "O'zbek tili morfemikasi", "O'zbek leksikografiyasi", "O'zbek tili so'z yasalishi", "O'zbek tili morfologiyasi", "O'zbek tili terminologiyasi" kabi fanlarga aloqador nazariy-amaliy muammolar tahlili, o'zbek tilining leksikasi, so'z yasalishi, morfologik vositalari talqiniga doir ilmiy-nazariy yondashuvlarni boyitishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbek tilshunosi Azim Hojiyevning ilmiy merosi mavzusini o'rganish bo'yicha olingan natijalar asosida:

o'zbek tilida morfema borasidagi ilmiy qarashlar Azim Hojiyevning ilmiy fikrlari bilan qiyoslangan holda olimning morfemaning mohiyati masalasidagi fikrlari ilmiy asosga ega ekanligini, "yetakchi" va "ko'makchi" morfema terminlarining ishlatilishi tilning mohiyatiga to'g'ri kelishi yoki kelmasligiga doir xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida tomonidan olib borilgan FA-FI-G003 "Hozirgi qoraqalpoq tilida funksional so'z yasalishi" (Функциональное словообразование в современном каракалпасском языке) nomli fundamental loyihada foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 18-iyuldagi 387/1-son ma'lumotnomasi). Natijada, loyiha materiallari morfema, so'z yasalishi, so'z yasalishi qolipi, yasama so'z va yasalgan so'z, leksikografik talqinlar kabi tilshunoslik uchun ham muhim bo'lgan yangi ilmiy manba va ma'lumotlar bilan boyigan;

Azim Hojiyevning o'zbek tili so'z yasalishi masalalarida so'z yasash, so'z yasash usuli, yasama so'zning tarkibi, so'z yasalishi asosi, so'z yasovchi, so'z yasalish ma'nosi, so'z yasalishi tipi, mahsulli va mahsulsizlik, so'z yasalish imkoniyati kabi masalalar chuqur tahlil etilgan holda kompozitsion so'z yasash usulining to'la usul sifatida tizimlashmaganligiga oid ilmiy xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida tomonidan olib borilgan FA-FI-G003 "Hozirgi qoraqalpoq tilida funksional so'z yasalishi" (Функциональное словообразование в современном каракалпасском языке) nomli fundamental loyihada foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 18-iyuldagi 387/1-son ma'lumotnomasi). Natijada, loyiha materiallari tilshunoslik fanning asosiy sathi bo'lmish grammatika, ya'ni morfologiya uchun ham muhim bo'lgan yangi ilmiy manba va ma'lumotlar bilan boyigan;

Azim Hojiyevning imlo masalasidagi ilmiy qarashlarini davriylik nuqtayi nazaridan o'rganish, bu boradagi tahliliy ma'lumotlarni istiqlool hamda istiqlooldan oldingi merosini tadqiqi asosida olimning imlo borasidagi qarashlarining o'zbek tilshunosligidagi ahamiyatiga doir ilmiy-nazariy xulosalardan O'zbekiston Milliy

teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston tarixi” telekanalida 2024-yilda efirga uzatilgan “Taqdimot” va “Mavzu” ko‘rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” telekanalining 2024-yil 15-iyundagi 02-06-841-son ma’lumotnomasi). Natijada, mazkur teleko‘rsatuv uchun tayyorlangan materiallar ilmiy faktik jihatlari bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy-nazariy anjumanlarida jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni yuzasidan jami 14 ta, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta, xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola chop qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 141 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Hozirgi o‘zbek adabiy tili shakllanishi va rivojlanishining lingvistik talqini**” deb nomlangan bo‘lib, bob uch fasldan iborat. Bobning birinchi fasli “**O‘zbek tilshunosligining shakllanish tarixidagi fonema va morfemalarga ilmiy munosabat**”larga bag‘ishlangan. Bunda fonema atamasining dunyo tilshunosligida paydo bo‘lishi va uni tadqiq etgan olimlarning turlicha qarashlari bilan birga, o‘zbek tilshunosligida fonema masalasi bo‘yicha bildirilgan fikrlarga alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, dunyo tilshunosligida fonema va uning mohiyati yuzasidan dastlabki ilmiy mulohazalarni bildirgan I.A.Boduen de Kurtenening fikrlari XIX asr boshlarida fonema ustida izlanish olib borgan N.Krushevskiy, L.V.Shcherba, D.Polivanov, N.S.Trubetskoy, S.O.Karsevskiy kabi olimlarning qarashlari bilan o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlari nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Shuningdek, mazkur faslda fonemaning asl mohiyati, o‘zbek tilshunosligida shakllanish tarixi va ularning o‘zbek tilining tarixiy manbalarida aks etishi ham o‘rganilgan.

D.Polivanov turkiy tillarning fonologiyasini obyekt sifatida tadqiq etgan va fonemaning integratsiya, korrelyatsiya, oppozitsiya kabi xususiyatlarini turkiy tillarga muvaffaqiyatli tatbiq qilgan. O‘zbek tilshunosligida fonemaga oid ilmiy tadqiqotlar XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab rivojlana boshlagan. Bu borada V.V.Reshetov, A.Nurmonov, A.Abduazizov va boshqa olimlarning ilmiy ishlari

alohida ahamiyatga ega⁶. Umuman olganda, fonema masalasi o'rganilgan davrlarni uning fan sifatida shakllanganidan keyingi va alohida o'rganilmagan bosqichlarga bo'lish mumkin. Buyuk tilshunos Mahmud Qoshg'ariyning fonema haqidagi ilmiy qarashlari nafaqat o'zbek tilshunosligida, balki butun turkiy tilshunoslik ilmidagi qimmatli hisoblanadi. U fonemalarning yozuvda aks ettirilish darajasi, fonema va harf munosabati hamda ularning o'rtasidagi mutanosiblikning doimo ta'minlanmasligi haqida fikr yuritadi.

Jadidlar davrining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri va o'zbek tilshunosligida muhim o'rin tutgan olim Abdurauf Fitratning qarashlari tilshunosligimizda "fonema" tushunchasiga oid ilk ilmiy fikrlarni shakllantirganini ko'rishimiz mumkin. Fitratning bu boradagi qarashlari uning "Sarf" asarida aks etgan bo'lib, u fonema va uning variantlari o'rtasidagi munosabatni chuqur anglagan va bu haqda o'z ilmiy asarida bayon qilgan⁷. Fonema borasidagi tadqiqotlar keyingi davrlarda ham o'zbek tilshunosligida keng ko'lamda davom ettirilib, mazkur yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar yanada chuqurlashdi.⁸ Shu bilan birga o'zbek tilshunosligida morfemaning o'rganilishi va taraqqiyoti, uning mohiyati masalasi haqidagi ilmiy mulohazalarning tadqiqi ham sezilarli zavishda taraqqiy etdi. O'tgan asrning 50-yillariga qadar, ya'ni o'zbek tilshunosligida "*morfema*" tushunchasi va atamasi shakllanguncha, grammatikaga oid ishlarda so'z tarkibi morfologik hodisa sifatida talqin qilinib, uning asos va qo'shimchadan tashkil topishi e'tirof etilgan, "*so'z tarkibi*" nomi bilan o'zak, negiz va affikslarning xususiyatlari haqida fikrlar yuritilgan. Masalan, O.Usmonov va B.Avizovlarning asarida o'zak, yasama so'zning asosiy ma'noli bo'linmaydigan qismi sifatida, shakl yasovchi qo'shimchalardan holi qismi esa negiz sifatida qaralgan.⁹ Biroq akademik Azim Hojiyevning morfema masalasidagi ba'zi mulohazalari farqliroq. Xususan, olim "O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasalishining nazariy masalalari" kitobida morfemani so'zning tarkibiy qismi ekanligini rad etadi va morfemani so'zning tarkibiy qismi sifatida talqin qilinishi uning so'zdan tashqarida mavjudligini inkor qilish bilan tenglashtiradi.¹⁰ Azim Hojiyev o'zbek tili morfemikasi va uning tadqiqiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlari o'zbek tilshunosligida morfema masalasiga yangicha mazmun olib kirdi. Azim Hojiyev morfemaga shunday ta'rif beradi: "Morfema o'z ifodasi va ma'no jihatiga ega bo'lgan, so'z yasash yoki so'z shaklini yasash uchun xizmat qiladigan lisoniy birlik". Ushu ta'rif o'zbek tilshunosligida morfema va unga doir muammolarni qayta tahlilga tortish kerakligiga ishora bo'ldi.

⁶ Baskakov N. A., Sodiqov A. S., Abduazizov A.A. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent: Fan, 1979.; Nurmonov A.N. O'zbek tilining fonologiyasi va morfonologiyasi. – Toshkent: Fan, 1990.

⁷ Фитрат. Сарф. – Самарқанд – Тошкент: Ўздавнашр, 1930. – Б. 59.

⁸ Nabiyeva D. O'zbek tilida lisoniy birliklarning invariant-variant munosabati: filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 1998; Nurmonova D. O'zbek tilida paradigma a'zolari o'rtasidagi zidlanishlarning mo'tadillashuvi: filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 1998.

⁹ Усмонов О., Авизов Б. Ўзбек тили грамматикаси. I бўлим. Фонетика ва морфология. – Тошкент: Фан, 1939. – Б. 46-48.

¹⁰ Хожиев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясашининг назарий масалалари. – Тошкент: Фан, 2010. – Б. 26.

Bobning **“O‘zbek tilshunosligining shakllanish tarixidagi so‘z va so‘zshakllari masalasiga doir ilmiy mulohazalar”** deb nomlangan ikkinchi faslida o‘zbek va dunyo tilshunosligida so‘z hamda so‘zshakl borasidagi ilmiy tadqiqotlar va ularning qiyosi tahlil etilgan. O‘zbek tilshunosligida so‘z borasidagi qarashlar hali ham yechimini topgani yo‘q desa ham bo‘ladi. Biroq bu boradagi mulohazalar uzoq tarixga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Tilshunoslikda so‘z tushunchasiga nisbatan turli ta‘riflar mavjud bo‘lib, ular ko‘pincha morfologiyaga oid ishlarda so‘z va so‘zshaklni til birligi sifatida o‘rganilgan. So‘z va so‘zshaklga oid tushunchalarning chuqur ilmiy tadqiqi o‘zbek tilshunosligida XX asrning 40-yillaridan boshlangan bo‘lsa-da, ungacha bo‘lgan ilmiy adabiyotlarda ham ushbu tushunchalar haqidagi muhim ma‘lumotlar mavjud. Xususan, Abdurauf Fitrat o‘zining “Sarf” asarida so‘zning mohiyatiga alohida e‘tibor qaratgan va uning til tizimidagi o‘rnini tahlil qilgan.

O‘zbek tilida so‘z va so‘zshakl masalalarini akademik Azim Hojiyevning tadqiqotlarida alohida e‘tibor qaratilgan. Olim morfemika, morfologiya so‘z yasalishi muammolari bilan bog‘liq masalalarni o‘zbek tilining tabiatidan uzoqlashmagan holda tadqiq etgan. 1979-yilda Azim Hojiyevning “Hozirgi o‘zbek tilida forma yasalishi” kitobi o‘zbek tilshunosligida forma yasalishiga bag‘ishlangan eng muhim ishlardan biri bo‘ldi. Azim Hojiyev o‘zbek tilida morfema masalasiga to‘xtalar ekan ular yo so‘z yasovchi, yoki shakl yasovchiga bo‘linishi g‘oyasini qat‘iy ilgari suradi va so‘zning morfologik tuzilishi so‘z yasovchi, forma yasovchi, so‘z o‘zgartiruvchi kabi uch turga bo‘linishini rad etadi. O‘zbek tilshunosligida so‘z o‘zgartiruvchining vazifasi sintaktik munosabatni ta‘minlash va boshqa so‘zlarga munosabati bilan belgilanishini ta‘kidlanadi.¹¹ Olimlarning ham so‘z o‘zgartiruvchi shakllar haqidagi qarashlari bir-biridan farq qiladi. Ayub G‘ulomov so‘z o‘zgartiruvchi shakllarni ikkiga bo‘ladi: sintaktik so‘z o‘zgartiruvchilar va sintaktik bo‘lmagan so‘z o‘zgartiruvchilar kabi.¹² Azim Hojiyev esa o‘zbek tilida qo‘shimchalar tarkibi faqatgina so‘z yasovchi yoki shakl yasovchidan iborat bo‘lishini ta‘kidlaydi.¹³

Bobning uchinchi fasli **“Hozirgi o‘zbek adabiy tilining tarixiy taraqqiyotida leksemalarning morfemaga o‘tishi xususidagi farazlar”** deb nomlanadi. Ushbu faslda o‘zbek tilidagi leksemalarning tarixiy taraqqiyotida morfema vazifasini bajaruvchi shaklga yoki aynan morfemaga o‘tishi haqida olimlarning farazlari va aniq ilmiy tadqiqotlari yoritilgan.

Darhaqiqat, hozirgi o‘zbek adabiy tilida *noma* so‘zi arxaiklashgan bo‘lib, odatda uni biz mumtoz asarlarimizda uchratishimiz mumkin. Azim Hojiyev “noma” so‘zining morfemaga o‘tishi haqida o‘zining “O‘zbek tili so‘z yasalishi” kitobida aniq va ixcham ta‘rif beradi: “Bu so‘z yasovchi “yozilgan narsa”, “xat”, “hujjat” kabi ma‘noli noma so‘zidan kelib chiqqan. Shu ma‘nosi bilan “noma” so‘zi qo‘shma so‘zlar yasash uchun ham qo‘llangan: *Sayohatnoma*, *Boburnoma*, *O‘g‘uznoma* va boshqalar. Bunday so‘zlar tarkibida noma affiksoid maqomida

¹¹ Усмонов С. Ўзбек тилида сўзнинг морфологик тузилиши. – Тошкент: Фан, 2010. – Б. 82.

¹² Ғулумов А. Ўзбек тили морфологиясига кириш. – Тошкент: Фан, 1957. – Б. 10.

¹³ Ҳожиев А. Ҳозирги ўзбек тилида форма ясалиши. – Тошкент: Фан, 1979. – Б. 10.

bo'ladi. Keyinchalik "noma" so'zi iste'moldan chiqa boshlaydi. Hozirda uni mustaqil so'z sifatida deyarli iste'moldan chiqqan deyish mumkin.¹⁴

Akademik Azim Hojiyevning "O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasashining nazariy masalalari" kitobida "so'z morfemalar" haqida gap ketadi. U o'zbek tilida shu vaqtga qadar qo'shimchasi morfemalarga zidlangan holatda ilmiy adabiyotlarda uchrovchi "so'z morfema"larga ta'rif beradi. Olim morfemalar qatoriga ko'makchilarni kiritadi. Shuningdek, tilshunos sof ko'makchilar haqida fikr yuritib, ular aslida leksema bo'lgani, bugungi kunda esa lug'aviy ma'nosini yo'qotgan shakl jihatdan qo'shimchasiga zid, ammo grammatik ma'noni ta'minlovchi morfema vazifasida kela oluvchi *bilan, uchun, qadar* kabi ko'makchilarning qo'shimchalar bilan gapda almashib kelishini ta'kidlaydi.

O'zbek tilining tarixiy taraqqiyotida so'z yasovchi, shakl yasovchi qo'shimchalarning shakllanishi va ularning asos tarkibida eskirishi, yaxlit holga kelishi tarixiy jarayon mahsuli hisoblanadi. O'zbek tili tillarning morfologik tasnifiga ko'ra agglyutinativ tillar guruhiga kirganligi bois asos va qo'shimcha orasidagi chegara yo'qolishi mumkin. Ya'ni grammatik ma'nolar ichki fleksiya yo'li bilan emas, balki qo'shimchalarning asosga qo'shilishi bilan yuzaga keladi. Bu holat o'zbek tilida leksemalarning lug'aviy ma'nosini yo'qotib, grammatik aloqani ta'minlovchi birlik shakliga o'tadi. O'zbek tilida leksemalarning morfemaga aylanishida biz o'zbek tiliga o'zlashgan so'zlar ma'nosining torayishi, qadimgi va eski turkiy tildagi mustaqil qo'llanuvchi leksemalarning morfemaga aylanishi, shuningdek, so'z morfema (yordamchi so'zlar)ning grammatik vazifasini ham o'tay olishini ko'rishimiz mumkin. O'zbek tilining tarixiy taraqqiyotida -*xona, -poya, -man, -san, -dir, -bek, -jon, -oy* kabi leksemalarning morfema vazifasida kela olishi misollar bilan asoslangan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, o'zbek tili tarixida leksemalarning lug'aviy ma'no yo'qotib morfema shaklini olib, grammatik aloqani ta'minlashga xizmat qiluvchi birliklar, asosan, otning kesimlik hamda fe'lning shaxs-son shakllarida uchraydi. Bugungi kunda tilshunoslikda kesimlik shakli sifatida, ya'ni shaxs-son qo'shimchalarining *-man, -san, -dir, -miz, -siz* kabi morfemalari dastlab kishilik olmoshlari bo'lgan *men, sen, biz, siz* leksemalarining davrlar o'tishi bilan morfema shaklini olganligiga guvoh bo'lamiz. Masalan, qadimgi turkiy yodnomalarda ham ushbu shaxs-son qo'shimchasi morfema shaklida kelishiga bir qancha misollar keltirish mumkin. Masalan, "O'g'uzxon" dostonida: *dost tutar-men – do'st tutar-men, duşman tutar-men – yov tutar-men.*¹⁵

Ishning ikkinchi bobi "Akademik Azim Hojiyevning so'z yasalishi va morfologik strukturaning nazariy masalalariga doir qarashlari" deb nomlangan. Bu bobning birinchi fasli "So'z yasalishi va o'zbek tilining leksik-semantik taraqqiyotiga doir talqinlar"ga bag'ishlangan bo'lib, bunda Azim Hojiyevning o'zbek tilida so'z yasalishi masalalariga doir ilmiy qarashlari qiyosiy tahlilga tortilgan.

¹⁴ Хожиев А. Ўзбек тили сўз ясаши тизими. – Тошкент: Ўқитувчи. 2007. –Б. 86.

¹⁵ Щербак А.М. Огуз-наме, Мухаббат-наме. – Москва: Наука, 1959. – С. 11-110.

Darhaqiqat, soʻz yasaliishi borasidagi keng koʻlamdagi jiddiy kuzatishlarni akademik A.Hojiyev ilmiy tadqiqotlarida amalga oshirdi. Olimning oʻzbek tilshunosligida soʻz yasaliishi masalalariga doir qarashlari oʻtgan asrning oʻrtalaridan boshlab ilm ahliga havola etila boshlandi. Olim talabalik yillaridanoq oʻzbek tilshunosligining muammolariga doir ilmiy qarashlarini ilmiy nashrlarda bayon eta boshlagan edi. Uning 1960-yilda “Juft soʻzlarning yasaliishi va komponentlarining maʼnosiga koʻra turlari”, “Oʻzbek tili soʻz yasaliishi” qoʻllanmasi oʻzbek tilshunosligida soʻz yasaliish bilan bogʻliq va uning muammolariga doir qoʻllanma boʻlib, 1989-yilda chop etildi. Keyinchalik, 2007-yilda, olim “Oʻzbek tili soʻz yasaliish tizimi” nomli monografiyasini nashr etadi. Soʻz yasaliishi tilshunoslikning dolzarb va murakkab hamda muammoli masalalaridan biri hisoblanadi. Shu boisdan soʻz yasaliishi va uning muammolariga doir ilmiy qarashlar ham shunga yarasha turli xil holatda yuzaga kelganligini koʻramiz.

Bu borada A.Hojiyev oʻzbek tilida soʻz yasashning yagona usuli mavjudligini asoslashga harakat qiladi. Olimning ilmiy tadqiqotlariga nazar soladigan boʻlsak, soʻz yasaliishiga doir oldingi tadqiqotida, yaʼni ot va sifatlarning kompozitsiya usulida yasaliishiga quyidagicha fikr bildiriladi: “Qoʻshma sifatlarning hosil boʻlishida [kam+ot], [ot+rang], [ot+sifat soʻzi], [ot+bop], [ot+talab], [umum+ot] kabilar maʼlum bir soʻz yasaliish tizimini hosil qilganligi koʻproq koʻzga tashlanadi”.¹⁶ Bu qoliplarning hosilalari sifatida *kamchiqim*, *kamhosil*; *jigarrang*, *moshrang*, *tillarang*; *darveshsifat*, *devonasifat*; *bizbop*, *qishbop*; *eʼtibortalab*, *mehrtalab*; *umumbadiiy*, *umumxalq* kabilar misol tariqasida keltiriladi. Bu jarayonda yasama soʻzlarning qaysi qismi yasovchi komponent ekanligi va ularning asosini aniqlash masalasi hali ham nomaʼlum boʻlib qolmoqda. Olimning kompozitsion soʻz yasaliish usuli mavjud emasligi haqidagi qarashlarining toʻgʻri ekanligini kompozitsion soʻz yasaliish usulida yasalgan deb qaralyotgan qoʻshma soʻzlarda, asosan, soʻz birikmasi oʻrtasidagi grammatik aloqalarning yoʻqolishini koʻrishimiz mumkin. Yaʼni yasama soʻz ikki qismdan: *soʻz yasaliish asosi* va *yasovchi qismdan* iborat boʻlishini hisobga olsak, qoʻshma soʻzlarda bu qoida amalda emas. Shuni taʼkidlab oʻtish joizki, olimning soʻz yasaliishi masalasini alohida tizim sifatida tadqiq etganligini hisobga olsak, kompozitsion soʻz yasaliishi usulida hosil boʻlgan yasama soʻzlar toʻla maʼnoda aniq yasaliish qolipiga ega emas.

Bobning ikkinchi fasli “**Oʻzbek tilining forma yasaliishida tartib va izchillik masalasiga munosabat**” deb nomlangan boʻlib, unda soʻzshakllarda morfemalar joylashuvining odatdagi tartibi va oʻzgarishining maʼnoga taʼsir etishi sabablari yoritilgan. Azim Hojiyevning 1979-yilda nashr qilingan “Hozirgi oʻzbek tilida shakl yasaliishi” kitobi oʻzbek tilshunosligida formalarning mohiyati, qoʻllanish doirasi va tartibi haqida kerakli manba boʻlib xizmat qildi. Olim oʻzbek tilining morfologik strukturasi haqidagi mulohazalarida aynan turkiy tillarga xos boʻlgan formalarning joylashuv tartibi haqida ham fikr bildiradi. Tilshunos oʻzbek tilida qoʻshimchalarning tarkibi avval soʻz yasovchi, shakl yasovchi va bir soʻzda

¹⁶ Хожиёв А. Ўзбек тили сўз ясаиши. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989. – Б. 104.

bir necha soʻz yasovchi, shuningdek, bir necha shakl yasovchi boʻlishi mumkinligini taʼkidlaydi.¹⁷ Shu bilan birga olim shakllarning analitik shaklini qay holda va qay tartibda asosga qoʻshilishi haqida ham fikr bildirib oʻtadi. Xususan, feʼllardagi analitik shakllar joylashuvi haqida, ular asosan ravishdosh *-a, -ib, -(a)y*; sifatdash *-gan, -adigan* shakllaridan keyin oʻrin olishi mumkinligini taʼkidlaydi.¹⁸ Misol uchun: *olib qoʻydi, boradigan boʻldi, sanay boshladi* kabi. Shuningdek, Azim Hojiyev bu birliklarning sintetik shaklini odatda soʻz yasovchidan soʻng, analitik shakllardan oldin, juft va takror formalardan keyin kela olishini ham ushbu kitobida taʼkidlagan.

Shakl yasovchilarning asosga qoʻshilishi tartibining va izchilligining buzilishi dialektlarda kuzatiladi. Bu holat tilda “*tejam*” deyiladi. Tejam pleonazmning ziddi hisoblanadi. Tildagi tejam tamoyili soʻzlovchi (individ)ning ruhiy, psixofiziologik quvvatini til birliklarini qisqartirish, tushirib qoldirish orqali tejashga, soʻzlarning bogʻlanishga ketadigan vaqtni kamaytirishga xizmat qiladi va tilning ortiqcha yuklamalardan holi boʻlishini taʼminlaydi. Tejamkorlikning fonetik, morfologik koʻrinishi mavjud boʻlib, morfologik tejam asosida fonetik tejam yotadi. *Yirik – irik, yigit – igit, yiroq – iroq* qisqaruvi fonetik tejamga misol boʻlsa, *olib ber – ober, bizim – bizning, sizing – sizning* kabilar morfologik qisqaruvga misol sifatida berish mumkin. *Olib ber – ober, bizim – bizning, sizing – sizning* tejalishlari – nutqiy qisqaruv sifatida ham berish mumkin.¹⁹ Nutqdagi qiyinchilikni artaraf etish ehtiyojidan kelib chiqib, zohir boʻladigan umumlisoniy qonuniyat. *Op keling* (olib keling), *buyam* (bu ham), *qong* (qoling) kabi hodisa bunga misol boʻladi. Morfemalarning soʻzshakl tarkibida joylashish tartibini toʻgʻri tushuntirish va ularning ishlash mexanizmini obyektiv holatga mos talqin qilishda Azim Hojiyevning ilmiy fikrlari qimmatli manba hisoblanadi. Shuningdek, ushbu faslda shakl yasovchilarning odatdagi tasnifi boʻyicha ish tutganlar: otning shakl yasovchilarning hammasi uning tanish boʻlgan kelishik shakllaridan boshlagan. Bu tushunishga qulaylik va osonlik tugʻdiradi, albatta, lekin bu tartib soʻzshaklning tabiiy hosil boʻlish tartibiga toʻgʻri kelmaydi, aniqrogʻi, u shakl yasovchilarni chap tomondan oʻngga, yaʼni oldindan keyinga qarab emas, balki oʻngdan chapga qarab joylashuvini koʻrsatadi. Bu shundan dalolat beradiki, substansialchilarning tasnifiy tartibi toʻgʻri hisoblanadi. Masalan, *daftarlarimni*. Koʻryapmizki, semantik-funksional yoʻnalishidagi nazariy grammatika mualliflari ot soʻz turkumiga mansub soʻz shakllarda shakl yasovchilarning joylashuv tartibini dastlab kelishik shakllari bilan boshlagan boʻlsalar-da, keyingi oʻrinlarda shakl yasovchilarning odatdagi tartibini ketma-ketlikda yoritganlar.²⁰ Oʻzbek tilida forma yasovchilarning tartibi va izchilligi soʻz maʼnosining boʻyoqdorligi va taʼsirchanligining oʻzgarishiga olib keladi.

¹⁷ Hojiyev A. Hozirgi ўzbek tili forma yasovchilari. – Toshkent: Ўqituvchi, 1979. – B. 35.

¹⁸ Oʻsha manba. – B. 73.

¹⁹ Sayfullayeva R va boshqalar. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – Toshkent: Oʻqituvchi. 2005. – B. 164.

²⁰ Nurmonov A. va boshqalar. Oʻzbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2001. – B. 39-40.

Uchinchi fasl **“Morfemik sathda semantik-grammatik xususiyati bilan bog‘liq o‘zgarishlar talqinining ilmiy asoslari”**ga bag‘ishlangan bo‘lib, bunda Azim Hojiyevning morfemikaga doir ilmiy tadqiqotlari va o‘zbek tilshunosligida morfemaga ilmiy munosabatlar tahlilga tortilgan. Morfema va unga doir masalaning rivojlanishida akademik Azim Hojiyevning fundamental tadqiqotlarini alohida ta’kidlash, e’tirof etish zarur. Zero, olimning o‘zbek tilida morfemaning mohiyati masalalaridagi tadqiqotlarini chetlab o‘tib bo‘lmaydi. O‘zbek tili morfemikasining shakllanishi va uning o‘rganish obyektni to‘g‘ri belgilanishida Azim Hojiyevning xizmati katta. Olim **“morfemika so‘zning necha morfemadan tashkil topishini o‘rganadi”**, degan fikrga qarshi chiqib, balki morfemika morfema va uning turlarini, har bir turga xos belgi xususiyatlarini o‘rganadi deb hisoblaydi. Azim Hojiyev **“O‘zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so‘z yasalishining nazariy masalalari”** kitobida morfema va uning mohiyati haqida o‘zbek ilmiy tilshunosligida hukm surayotgan an’anaviy fikrlarga qarshi chiqadi. Xususan, morfema so‘zning eng kichik ma’noli qismi degan fikrni inkor etadi²¹. Olim morfemani so‘zning ma’noli qismi deb qarash morfemaning tabiatiga ko‘ra **“o‘zak morfema”** va **“ko‘makchi morfema”** degan terminlarni ham o‘rtaga chiqarishini ta’kidlaydi, shuningdek, morfema so‘zning eng kichik ma’noli qismi bo‘lib, so‘z tashqarisida mavjud emas degan fikrlarga Azim Hojiyev o‘zining ilmiy qarashlari bilan e’tiroz bildiradi. Morfemaning nutq birligi sifatida talqin etilishi keyingi davrlarda ham davom etdi. O‘zbek tilshunosligiga doir darsliklarida, qo‘llanmalarda ham so‘zning ma’noli qismi ekanligi va uning xususiyatiga ko‘ra o‘zak morfema va affiks morfemaga ajraladi degan an’anaviy qarash hukm surmoqda.²² Azim Hojiyev bu masalada fikr bildirgan tilshunos olimlar fikrlariga qarshi chiqib, morfemaning lug‘aviy morfema yoki affiksial morfema kabi turlari mohiyatan bir-birini inkor etuvchi xato tushuncha ekanligini ta’kidlaydi va o‘z fikrida morfemaning asosga nisbatan ishlatilishi uning asl mohiyatiga zid ekanini urg‘ulagan.²³

Azim Hojiyevning morfema masalasida eng ko‘p bahslarga sabab bo‘lgan fikri o‘zbek tilida **“nol morfema”** terminining ishlatilishi va uning qo‘llanishi haqidagi mulohazalaridir. Bilamizki, o‘zbek tilshunosligida **“nol morfema”**, **“nol shakl”** terminlari yonma-yon qo‘llaniladi.²⁴ Adabiyotlarda otlarning bosh kelishik shakliga, birlik son ko‘rsatgichiga; fe’llarda aniq nisbatga, bo‘lishsiz fe’lga nisbatan qo‘llanib kelinadi.²⁵ **“Nol morfema”**, **“nol ko‘rsatkichli morfema”** tushunchalari bilan bog‘liq umumiy muammoli masalalar adabiyotlarda turli tarzlarda yoritilayotgan bo‘lsa-da, aniq grammatik shaklsiz holatlar bo‘lgan, grammatik birlik son shakli va bo‘lishli fe’l shakli deb qaralayotgan hodisalarning mohiyatini ochishga ojizlik qiladi. Negaki nol ko‘rsatkichli shakl hisoblanadigan

²² Жамолхонов Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Илм-зиё, 2004. – Б. 68.

²³ Ҳожиёв А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясаилишининг назарий масалалари. – Тошкент: Фан, 2010. – Б. 25-30.

²⁴ Сайфуллаева Р. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Морфология, II (ўқув қўлланма). – Тошкент: Фан, 2005. – Б. 5-6.

²⁵ Ўзбек тили грамматикаси. I т., Морфология. – Тошкент: Фан, 1975. – Б. 191.; Шоабдурахмонов Ш. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б. 226.

bu holatlar qayd etilayotgan grammatik ma'noni aniq ifodalay olmaydi, to'g'rirog'i, ular shunday ma'noni ifodalash xususiyatiga ega emas.²⁶ Olimning morfema masalasidagi ilmiy tadqiqotlari o'zbek tilshunosligida bu masalaga jiddiy yondashish kerakligini ko'rsatdi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Azim Hojiyevning imlo, terminologiya va leksikografiyaga doir ilmiy mulohazalari**" deb nomlanadi. Bobning "**O'zbek tili imlosining nazariy va amaliy masalalaridagi ilmiy farazlarga munosabat**" deb nom olgan birinchi faslida o'zbek tili imlosining rivojlanishi va zamonaviylashuviga e'tibor qaratilgan. Azim Hojiyev o'zbek tili imlosini chuqur o'rganishga bag'ishlangan ilmiy ishlari bilan bu sohani rivojlantirishga katta hissa qo'shdi. Uning 1963-yilda nashr etilgan "O'zbek tilida qo'shma, juft, takroriy so'zlar" asari o'zbek tili imlosini chuqur o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, qo'shma so'zlarning ajratib yozilishi, qo'shib yozilishi va chiziqcha bilan yozilishiga oid muhim qarashlarni bayon qiladi. XX asr oxirlarida o'zbek tilining imlosi masalalaridagi muammoli, yechimini kutayotgan vaziyatlarga oydinlik kiritish hamda barchaga tushunarli bo'lgan til qonuniyatlarini qabul qilish yuzasida bir qator olimlar tadqiqotlar olib bordi. Bunday tilshunoslardan I.Qo'chqortoyev, Sh.Rahmatullayev, A.Nurmonov, N.Mahmudov, Y.Abdullayev, H.Jamolxonov, A.Rafiyev, M.Qurbonova, R.Jomonovlarning qarashlari taqsimga sazavvordir. Mazkur til zahmatkashlari orasida o'zbek tilshunoslik tarixida imlo lug'atlari va o'zbek yozuvi imlosi masalasi bo'yicha ilmiy tadqiqot qilgan olimlar orasida Azim Hojiyevning o'rni beqiyosdir. Olim o'zbek tilshunosligining nafaqat grammatika, balki leksikografiya, leksikologiya, fonetika sohalarida ham katta meros qoldirdi.

Darhaqiqat, har qanday tilning asosida uning fonetikasi yotadi. Uning to'g'ri va qo'llanishli shaklda bo'lishi til uchun muhim sanaladi. Azim Hojiyev o'zbek tili imlosiga doir bir qator ishlarini o'tgan asrning oxirlarida yaratdi. Shuni ta'kidlab o'tish zarurki, olimning 1995-yilda Sh.Rahmatullayev bilan hamkorlikda "O'zbek tilining imlo lug'ati" mustaqillikdan keyin o'zbek tilida lotin alifbosida nashrga chiqarilgan birinchi imlo lug'atlaridan biri edi.²⁷ Shu munosabat bilan imlo qoidalaridagi tovush-harf munosabatiga bag'ishlangan qismi qayta yozildi. Kirill alifbosiga asoslangan o'zbek yozuvi ancha yillar amalda xizmat qilib keldi. Shuning bilan birga bu yozuvni to'laligicha turkiy tillar tarmog'iga kiruvchi o'zbek tilini ifoda etolmaydigan kamchiliklari ham mavjud ediki, yangilanayotgan alifboni ham o'zbek tilining tabiatiga moslashtirish masalasiga ham asosiy mavzu sifatida qaralgan. Azim Hojiyev hamkorlidagi "O'zbek tilining imlo lug'ati" asari istiqbolning dastlabki yillarida imlo masalasidagi muammolar yechimida asosiy qo'llanma bo'lib xizmat qildi. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, lug'at hozirgi imlo qoidalaridan biroz farq ham qiladi. Lug'atda "*ikkiyoqlama*", "*ikkiyuzlama*" qo'shib yozilgan bo'lsa, aynan shu usul yordamida, mohiyati bir-biriga yaqin bo'lgan "*bir yoqlama*", "*bir yoqli*" so'zlarining ajratib berilganiga guvoh bo'lishimiz mumkin.²⁸ Bu o'rinda kitob mualliflarining imlo masalasida 1956-

²⁶ Хожиёв А. Ўзбек тилининг долзарб муаммолари. // Ўзбек тили ва адабиёти. 2007. 5-сон. – Б. 26.

²⁷ Rahmatullayev Sh., Hojiyev A. O'zbek tilining imlo lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – 528 b.

²⁸ O'sha kitob. – B. 54, 96.

yildagi imlo qoidalariga rioya qilgan yoki aynan *biryoqlama*, *biryoqli* soʻzlarini qoʻshma soʻz deb hisoblamagan boʻlishi mumkin.

Mustaqillikning dastlabki yillarida nashr etilgan imlo lugʻatlari ham mavjud. Masalan, M.Yoʻldoshevning “Dolzarb lugʻat” kitobi bunga misol boʻla oladi. Xususan, bu lugʻatning “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”dan farqlari koʻzga tashlanar edi. Bundan tashqari, Sh.Rahmatullayev va A.Hojiyevlar tomonidan tuzilgan lugʻatida maʼlum bir soʻz *ertalabgi* deb yozilgan boʻlsa,²⁹ M.Yoʻldoshevning “Dolzarb lugʻati”da bu soʻz *ertalabki* deb berilgan.³⁰ Azim Hojiyev imlo muammolari borasidagi istiqloq davrining ilk kunlarida olib borgan tadqiqotlari maktab, oliy taʼlim muassasalarida asosiy foydalaniladigan manba boʻlib xizmat qildi. Olim kirill yozuvidagi imlo masalalarini lotin yozuvida toʻgʻri va aniq berish ustida ilmiy mulohazalar yuritdi. Shunindek, lugʻatning ilova qismida talabalarga tushunarli boʻlishi uchun kirill alifbosidagi я, ю, ё, в harflarining lotin yozuvida qay holatda berilishi boʻyicha koʻrsatmalar ham berib oʻtilgan.³¹ A.Hojiyevning oʻzbek tili imlosi masalasidagi ilmiy qarashlari istiqloq davrida oʻziga xos yoʻl koʻrsatuvchi vazifani oʻtadi. Imloviy masalada qoldirgan boy merosi oʻzbek tili taraqqiyoti rivojiga katta hissa qoʻshdi.

